“IGNORANTIA JURIS NON EXCUSAT” TAMOYILI: ZAMONAVIY HUQUQDA QONUNNI BILMASLIKNING HUQUQIY OQIBATLARI

Abdumo‘minova Salomat Otabekovna
Yurisprudensiya yo‘nalishi 2-bosqich talabasi
O‘zbekiston Milliy universiteti
el.pochta: salomatabdumuminova@gmail.com
https://doi.org/10.5281/zenodo.21507139

Annotatsiya: Ushbu maqolada antik Rim huquqshunosligidan buyon universal huquqiy doktrina sifatida amal qilib kelayotgan “Ignorantia juris non excusat” (Qonunni bilmaslik uzr hisoblanmaydi) tamoyilining zamonaviy huquqiy tizimlardagi o‘rni, uning nazariy va amaliy jihatlari chuqur ilmiy tahlil qilingan. Tadqiqotda yangi tahrirdagi O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi, milliy jinoyat va ma’muriy javobgarlik to‘g‘risidagi qonunchilik normalari hamda xorijiy mamlakatlar (kontinental va anglosakson) huquqiy tajribasi qiyosiy o‘rganilgan. Axborot-kommunikatsiya texnologiyalari va raqamlashtirish (Lex.uz) jadal rivojlangan davrda huquqiy bilimsizlikning subyektiv hamda obyektiv omillari, huquqiy fiksiya va prezumpsiya tushunchalari doirasida baholangan. Maqola yakunida fuqarolarning huquqiy madaniyati va savodxonligini oshirish bo‘yicha ilmiy-amaliy takliflar ilgari surilgan.
Kalit so‘zlar: qonun ustuvorligi, ignorantia juris non excusat, javobgarlik, konstitutsiya, huquqiy fiksiya, huquqiy prezumpsiya, huquqiy madaniyat, lex.uz, ayb shakllari, kontinental huquq, anglosakson huquqi.

THE “IGNORANTIA JURIS NON EXCUSAT” PRINCIPLE: LEGAL CONSEQUENCES OF IGNORANCE OF THE LAW IN MODERN LAW

Abstract: This article provides a comprehensive scientific and theoretical analysis of the principle "Ignorantia juris non excusat" (Ignorance of the law is no excuse), which has functioned as a universal legal doctrine since ancient Roman jurisprudence, and its position in modern legal systems. The research comparatively examines the norms of the newly revised Constitution of the Republic of Uzbekistan, national criminal and administrative liability legislation, as well as foreign legal experiences (continental and Anglo-Saxon). In the era of rapid development of information and communication technologies and digitalization (Lex.uz), the subjective and objective factors of legal ignorance are evaluated within the concepts of legal fiction and presumption. The article concludes with practical and theoretical proposals aimed at enhancing the legal culture and literacy of citizens.
Keywords: rule of law, ignorantia juris non excusat, liability, constitution, legal fiction, legal presumption, legal culture, Lex.uz, forms of guilt, continental law, Anglo-Saxon law.

ПРИНЦИП «IGNORANTIA JURIS NON EXCUSAT»: ЮРИДИЧЕСКИЕ ПОСЛЕДСТВИЯ НЕЗНАНИЯ ЗАКОНА В СОВРЕМЕННОМ ПРАВЕ

Аннотация: В данной статье проведен глубокий научный анализ роли принципа «Ignorantia juris non excusat» («Незнание закона не освобождает от ответственности»), действующего в качестве универсальной правовой доктрины со времен античной римской юриспруденции, в современных правовых системах, а также его теоретических и практических аспектов. В исследовании в сравнительном плане изучены Конституция Республики Узбекистан в новой редакции, нормы национального уголовного и административного законодательства об ответственности,

а также правовой опыт зарубежных стран (континентального и англосаксонского права). В условиях стремительного развития информационно-коммуникационных технологий и цифровизации (Lex.uz) дана оценка субъективным и объективным факторам правовой неосведомленности в рамках понятий правовой фикции и презумпции. В заключение статьи выдвинуты научно-практические предложения по повышению правовой культуры и грамотности граждан.

Ключевые слова: верховенство закона, Ignorantia juris non excusat, ответственность, Конституция, правовая фикция, правовая презумпция, правовая культура, Lex.uz, формы вины, континентальное право, англосаксонское право.

Kirish. Insoniyat sivilizatsiyasi rivojlangani sayin, jamiyatni boshqarish va tartibga solishning eng mukammal vositasi sifatida aynan qonun ustuvorligi e'tirof etilmoqda. Afsuski, kunda-kunora hayotimizda, adliya idoralari eshiklarida yoki sud zallarida bot-bot quloqqa chalinadigan bir vaj bor: "Men bu qonunni bilmagan edim..." Ushbu oddiygina bir jumla ortida jiddiy huquqiy, falsafiy va ijtimoiy muammo yashiringan. Xo'sh, qonunni bilmaslik insonni qilmishining huquqiy oqibatlaridan, muqarrar javobgarlikdan qutqarib qola oladimi? Qadimiy Rim huquqshunosligidan buyon amal qilib kelayotgan mashhur universal prinsip - "Ignorantia juris non excusat" (Qonunni bilmaslik uzr hisoblanmaydi) tamoyili bugungi kun voqeligida qanchalik aks etmoqda?

Mavzuning ahamiyati yana shundaki, O'zbekistonda amalga oshirilayotgan huquqiy islohotlar, xususan sud-huquq tizimini erkinlashtirish, raqamli davlat xizmatlarini rivojlantirish va fuqarolarning huquqiy ongini yuksaltirish borasidagi davlat siyosati doirasida, ushbu qadimiy tamoyilning zamonaviy talqini alohida ilmiy-amaliy qiziqish uyg'otadi.

Tadqiqot metodologiyasi.

Tadqiqotni amalga oshirishda bir qator zamonaviy ilmiy-tadqiqot metodlaridan uyg'unlikda foydalanildi. Gnoseologik va mantiqiy-huquqiy metod yordamida huquqiy bilimsizlik hodisasi va uning javobgarlikka ta'siri falsafiy hamda mantiqiy nuqtai nazardan turkumlashtirildi. Qiyosiy-huquqiy metod orqali O'zbekiston Respublikasi milliy qonunchiligi kontinental huquq oilasiga mansub Germaniya va Fransiya, shuningdek anglosakson huquq tizimiga mansub Amerika Qo'shma Shtatlari va Buyuk Britaniya tajribasi bilan solishtirildi. Formal-yuridik va normativ tahlil metodi Konstitutsiya, Jinoyat kodeksi hamda Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeks normalarini tizimli sharhlash imkonini berdi. Nihoyat, tarixiy-huquqiy metod yordamida ushbu prinsipning Rim huquqidan tortib to hozirgi kungacha bo'lgan shakllanish va evolyutsiya bosqichlari tadqiq etildi. Metodlarning bunday kompleks qo'llanilishi mavzuni nazariy va amaliy jihatdan har tomonlama yoritish imkonini berdi.

Adabiyotlar tahlili.

Qonunni bilmaslik va uning javobgarlikka ta'siri masalasi asrlar davomida dunyo huquqshunoslik fani e'tiborida bo'lib kelgan. Antik Rim yuristlari Ulpian, Sels, Gay ushbu prinsipni davlatchilik tartibini saqlashning eng birinchi sharti deb bilganlar. Rim huquqida ikki qarama-qarshi, ammo bir-birini to'ldiruvchi ibora o'rtasida qat'iy chegara o'tkazilgan: "Ignorantia juris nocet" (Qonunni bilmaslik zarar keltiradi) va "Ignorantia facti non nocet" (Faktni bilmaslik zarar keltirmasligi mumkin). Ushbu farqlash bugungi kunda ham huquq nazariyasining asosiy tayanch nuqtalaridan biri bo'lib qolmoqda, chunki u shaxsning huquqiy normani bilmasligi bilan voqelikdagi muayyan holatni (faktni) bilmasligi o'rtasidagi tub farqni ochib beradi.

Huquq nazariyasida ushbu prinsip ikkita asosiy tushuncha bilan uzviy bog'liq holda tushuntiriladi. Huquqiy fiksiya (fictio juris) davlat qonunni rasman e'lon qilganidan so'ng, mamlakatdagi har bir fuqaro bu qonunni biladi deb sun'iy ravishda faraz qilinishidir. Garchi

amalda barcha fuqarolar har bir qonun matnini yoddan bilishi obyektiv jihatdan imkonsiz bo‘lsa-da, jamiyat tartibini saqlash, huquqiy munosabatlarning barqarorligini ta’minlash uchun ushbu fiksiya zaruriy huquqiy vosita hisoblanadi. Bunga tutash bo‘lgan ikkinchi tushuncha huquqiy prezumpsiya (presumptio juris) - qonunning rasmiy e’lon qilinishi barcha fuqarolar uchun uni o‘rganishga yetarli imkoniyat yaratilganligini anglatuvchi huquqiy taxmindir. Boshqacha aytganda, davlat qonunni bilishni talab qilar ekan, avvalo uni bilish imkoniyatini ta’minlagan bo‘lishi shart, aks holda ushbu prezumpsiya o‘z kuchini yo‘qotadi.

Zamonaviy g‘arb huquqshunos olimlaridan J. Dressler va G. Williams o‘z tadqiqotlarida ta’kidlashicha, agar qonunni bilmaslik subyektiv ravishda javobgarlikdan ozod etishga asos bo‘lganida, huquqiy bilimsizlik jamiyatda eng katta imtiyozga va javobgarlikdan qochishning eng oson yo‘liga aylanib qolar edi. O‘zbekiston huquqshunos olimlaridan A. Saidov, U. Tadjixanov, M. Rustamboyev o‘z ilmiy ishlarida huquqiy savodxonlik, huquqiy madaniyat va huquqiy nihilizm masalalarini tadqiq etib, qonunni bilish har bir shaxsning konstitutsiyaviy va fuqarolik burchi ekanligini ilmiy jihatdan asoslab berishgan. Ushbu ikki yo‘nalishdagi doktrinal qarashlarning uyg‘unligi shuni ko‘rsatadiki, mazkur tamoyil nafaqat repressiv, balki tarbiyaviy-profilaktik ahamiyatga ham ega.

Tahlil va natijalar.

Yangi tahrirdagi O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 19-moddasida muhrlab qo‘yilganidek, O‘zbekiston Respublikasida barcha fuqarolar bir xil huquq va erkinliklarga ega bo‘lib, qonun oldida tengdirlar. Ushbu tenglik nafaqat huquqlardan foydalanishda, balki qonun bilan belgilangan majburiyatlarni bajarishda va javobgarlikda ham yaqqol namoyon bo‘ladi. Davlat qonun ishlab chiqaradi va uni rasmiy manbalar orqali keng jamoatchilikka e’lon qiladi. Konstitutsiyaning yangi normalariga binoan, har bir shaxsga o‘z huquqlari va majburiyatlari bilan tanishish imkoniyati to‘liq ta’minlanadi. Demak, qonun rasman e’lon qilingan paytdan boshlab, davlat har bir fuqaro uni biladi va unga amal qiladi degan qat’iy va adolatli taxmindan kelib chiqadi. Qonunlarni bilish ularning so‘zlarini yodlab olish emas, balki ularning ma’nosi va ruhini anglash demakdir.

Tasavvur qiling, agar qonunni bilmaslik javobgarlikdan ozod etishga asos bo‘lganida edi, jamiyatda qanday tartibsizlik va anarxiya yuzaga kelardi. Har bir huquqbuzar yoki jinoyat sodir etgan shaxs o‘zini oqlash uchun shunchaki “bunday taqiq borligidan xabarim yo‘q edi” deyishi kifoya qilar va qonunlar o‘z-o‘zidan kuchsiz, shunchaki qog‘ozdagi matnga aylanib qolardi. Bugungi axborot texnologiyalari jadal rivojlangan davrda axborot yetishmasligi haqida gapirish mutlaqo asossizdir. Bugungi kunda har bir fuqaro mobil telefoni orqali milliy qonunlar bazasiga (masalan, Lex.uz tizimiga) erkin va bepul ulanish imkoniga ega. Shu bois, yangi qonunchilik sharoitida huquqiy bilimsizlik endi obyektiv sabab emas, balki shaxsiy loqaydlik oqibati sifatida baholanmoqda.

Milliy sohaviy qonunchiligimizda shaxsning qonunni bilmasligi uning javobgarligiga qanday ta’sir qilishi aniq mezonlar bilan belgilab qo‘yilgan. Jinoyat huquqi nuqtai nazaridan, O‘zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksining 20-moddasida aybning shakllari qasd va ehtiyotsizlik belgilangan. Jinoiy javobgarlikka tortishda shaxsning o‘z qilmishining ijtimoiy xavflilik xususiyatini anglaganligi yoki anglashi lozim va mumkin bo‘lganligi (ehtiyotsizlik shaklidagi aybda) asos qilib olinadi. Agar shaxs o‘z harakatining ijtimoiy xavfli oqibatlarini ko‘ra bilishi lozim va mumkin bo‘lsa-yu, lekin o‘ziga bino qo‘yish yoki beparvoligi oqibatida buni ko‘ra bilmagan bo‘lsa, u baribir javobgarlikka tortiladi. Shu bois “qonunda bu harakat jinoyat deb belgilanganini bilmasdim” degan izoh shaxsni aybsiz deb topishga hech qanday asos bo‘la olmaydi qonun buzilgan ijtimoiy xavfli oqibatning mavjudligi yetarli hisoblanadi, huquqiy normaning aniq matnini bilish shart emas.

Ma’muriy huquq nuqtai nazaridan ham xuddi shunday qat’iy yondashuv saqlanadi: Ma’muriy javobgarlik to‘g‘risidagi kodeks normalariga ko‘ra, ma’muriy qoidabuzarlik sodir etgan shaxsning huquqiy bilimsizligi uni ma’muriy jazo qo‘llanilishidan to‘xtatib qolmaydi.

Bu qoidaning yagona mustasno holati shaxsning ruhiy kasallik oqibatida o‘z harakatlarini anglay olmasligi yoki ularni boshqara olmasligi (aqlisrasizlik holati) bilan bog‘liq bo‘lib, bunday holatda javobgarlik masalasi umuman boshqacha, tibbiy-huquqiy asoslarda hal qilinadi, sof huquqiy bilimsizlik esa bunga taalluqli emas.

O‘zbekiston Respublikasining Ma’muriy javobgarlik to‘g‘risidagi kodeksida ham, Jinoyat kodeksida ham shaxs qilmishining ijtimoiy xavflilik xususiyatini anglamaganligi yoki qonunda bu haqda modda borligini bilmaganligi uni jazolashdan to‘liq to‘xtatib qolmasligi belgilangan. Agar shaxs o‘z harakatining oqibatini ko‘ra bilishi lozim va mumkin bo‘lsa, u har qanday holatda ham qonun oldida javob beradi.

Bu prinsip nafaqat milliy qonunchiligimizda, balki xalqaro huquqiy tizimlarda ham eng qat’iy qoidalardan biridir. Kontinental huquq tizimida ham (Fransiya, Germaniya), anglosakson huquqiy makonida ham (AQSh, Buyuk Britaniya) qonunning e’lon qilinishi uning har taraflama majburiy o‘rganilishi shartligini anglatadi. Rivojlangan xorijiy davlatlarda huquqiy savodxonlik shunchaki majburiyat emas, balki kundalik hayot madaniyatidir. Har bir tadbirkor, har bir oddiy ishchi o‘z sohasiga oid qonun o‘zgarishlarini diqqat bilan kuzatib boradi. Chunki ular qonunni bilmaslik iqtisodiy inqirozga va jiddiy huquqiy muammolarga olib kelishini juda yaxshi anglaydilar.

Kontinental huquq oilasiga mansub Germaniya va Fransiya kabi davlatlarda “Ignorantia juris non excusat” tamoyili qat’iy amal qiladi: qonunlar rasmiy e’lon qilingach, ular barcha shaxslar uchun majburiy hisoblanadi va ulardan xabarsizlik odatiy holatlarda uzr sifatida qabul qilinmaydi. Faqatgina o‘ta mustasno holatlarda shaxs qonunni bilishi obyektiv ravishda mutlaqo imkonsiz bo‘lgan favqulodda vaziyatlarda (nemis huquq doktrinasida “Verbotsirrtum” yoki xatolik nazariyasi doirasida tahlil qilinuvchi holatlarda) mas’uliyatni yumshatish imkoniyati ko‘rib chiqiladi. Anglosakson huquq tizimida, xususan Amerika Qo‘shma Shtatlari va Buyuk Britaniyada, “ignorance of the law is no excuse” qoidasi ham precedent, ham statut huquqida barqaror qo‘llaniladi. Shu bilan birga, ayrim maxsus moliyaviy va soliq jinoyatlarida qonun bilan “ataylab” (willfulness) unsurini isbotlash talab etilishi mumkin, bu esa umumiy qoidadan tor doiradagi texnik istisnoni tashkil etadi, umumiy tamoyilni bekor qilmaydi.

Alohida e’tiborga molik jihat Inson huquqlari bo‘yicha Yevropa sudining ushbu masalaga yondashuvidir. Ushbu sud amaliyotida qonunning “kutilayotganlik” (foreseeability) va “ochiqlik” (accessibility) mezonlariga javob berishi talab etiladi. Agar davlat qonunni yetarlicha ochiq va tushunarli tarzda e’lon qilmagan bo‘lsa, shaxsni shu qonun asosida javobgarlikka tortish Inson huquqlari va asosiy erkinliklarni himoya qilish to‘g‘risidagi Yevropa konvensiyasining 7-moddasini buzish deb topilishi mumkin. Ushbu yondashuv 1979 yilda ko‘rib chiqilgan Sunday Times va Buyuk Britaniya ishi bo‘yicha qarorda o‘z aksini topgan bo‘lib, u zamonaviy huquqshunoslikda qonunning shaffofligi va fuqarolar uchun real kirish imkoniyati mezonlarini belgilashda muhim ahamiyat kasb etadi. Bunday yondashuvni tahlil qilish shuni ko‘rsatadiki, tamoyilning o‘zi mutlaq emas u davlatning o‘z zimmasiga qonunlarni ochiq va tushunarli e’lon qilish majburiyatini yuklaydi, ya’ni fuqaroning burchi bilan davlatning majburiyati o‘zaro bog‘liq holda mavjud.

Tadqiqot va tahlillar shuni ko‘rsatadiki, “qonunni bilmaslik javobgarlikdan ozod qilmaydi” tamoyili shunchaki jazolash quroli emas, balki jamiyatda barqarorlik va adolatni ushlab turuvchi ko‘rinmas huquqiy ustundir. Qonunlarni o‘rganish va ularga rioya etish har bir erkin fuqaroning konstitutsiyaviy hamda axloqiy burchi hisoblanadi, ayniqsa Lex.uz kabi ochiq raqamli platformalar orqali qonun matniga kirish imkoniyati keng yo‘lga qo‘yilgan bugungi sharoitda. Shu bilan birga, tamoyilning adolatli va samarali qo‘llanilishi faqat repressiv chora emas, balki davlatning fuqaroga qonunni yetkazish borasidagi faol siyosati bilan uyg‘unlikda amalga oshirilishi lozim.

Mamlakatimizda fuqarolarning huquqiy savodxonligini oshirish va huquqiy bilimsizlik oqibatida yuzaga keladigan huquqbuzarliklarning oldini olish maqsadida, avvalambor, qonunchilikni fuqaroga yaqinlashtirish, ya'ni normativ-huquqiy hujjatlarni qabul qilishda "plain language" konsepsiyasiga asoslanib, matnlarni murakkab yuridik atamalardan xoli, oddiy fuqaro uchun tushunarli tilda bayon etish maqsadga muvofiqdir. Shuningdek, Lex.uz milliy bazasi va My.gov.uz elektron davlat xizmatlari portali imkoniyatlaridan foydalangan holda, fuqarolarning kundalik hayotiga bevosita ta'sir qiluvchi muhim qonunchilik o'zgarishlari to'g'risida qisqa va tushunarli push-bildirishnoma yoki SMS-xabarnomalar yuborish tizimini kengaytirish samarali yo'nalish bo'lishi mumkin. Bundan tashqari, oliy va o'rta maxsus ta'lim muassasalarida huquqiy fanlarni faqat nazariy ma'ruzalar shaklida emas, balki real hayotiy keyslar, sud jarayonlari simulyatsiyasi hamda interaktiv o'quv usullari orqali o'qitishga bosqichma-bosqich o'tish talab etiladi, zero amaliy ko'nikmalarga asoslangan ta'lim huquqiy ongni shakllantirishda nazariy bilimdan ko'ra samaraliroq natija beradi. Nihoyat, adliya organlari tomonidan huquqbuzarliklar statistikasi nisbatan yuqori bo'lgan sohalarda jumladan kiberhavfsizlik, moliyaviy firibgarlik hamda yo'l harakati xavfsizligi qoidalari yuzasidan manzilli va profilaktik tushuntirish ishlarini muntazam tarzda olib borish zarur, chunki aynan shu sohalarda huquqiy bilimsizlik eng ko'p uchraydigan va eng og'ir oqibatlarga olib keladigan omil sifatida namoyon bo'lmoqda.

Yakun sifatida ta'kidlash lozimki, "Ignorantia juris non excusat" tamoyili bu tarixiy meros bo'lib qolmasdan, balki huquqiy davlat qurilishining bugungi kundagi zaruriy shartlaridan biridir. Uning adolatli va samarali amal qilishi, bir tomondan, fuqarolarning huquqiy ongi va madaniyatini yuksaltirishga, ikkinchi tomondan esa davlatning qonunchilikni shaffof, ochiq va barcha uchun tushunarli tarzda amalga oshirishga qaratilgan izchil siyosatiga bog'liqdir. Ushbu ikki omilning uyg'un rivojlanishi orqaligina jamiyatda haqiqiy qonun ustuvorligiga erishish mumkin bo'ladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. (Yangi tahriri). – Toshkent: "O'zbekiston", 2023. – 80 b.
2. O'zbekiston Respublikasining Jinoyat kodeksi. (Rasmiy matn). – Toshkent: "Adolat", 2024.
3. O'zbekiston Respublikasining Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksi. – Toshkent: "Adolat", 2024.
4. Saidov A.X. Xalqaro huquq va inson huquqlari. Darslik. – Toshkent: "Yuridik adabiyotlar publish", 2021. – 320 b.
5. Tadjixanov U., Saidov A. Huquqiy madaniyat nazariyasi. 2 jildlik. – Toshkent: O'zbekiston Respublikasi IIV Akademiyasi, 1998.
6. Rustamboyev M.X. O'zbekiston Respublikasi Jinoyat huquqi kursi. 1-jild: Umumiy qism. Darslik. – Toshkent: "Yuridik adabiyotlar publish", 2021. – 480 b.
7. Dressler, J. Understanding Criminal Law. 8th edition. – Carolina Academic Press, 2018. – pp. 145–160.
8. Williams, G. Criminal Law: The General Part. 2nd ed. – London: Stevens & Sons, 1961. – pp. 288–305.
9. Yevropa Inson Huquqlari Sudining precedent huquqi to'plami (Sunday Times v. United Kingdom, 1979-yil qarori va sharhlari).
10. O'zbekiston Respublikasi Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi – www.lex.uz.